XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

Uchquduq tuman, Amir Temur ko‘chasi – 28, tel: (79) 222-00-05

2023 - yil 12 - yanvar VI-60-4-5-76-K/23 Uchquduq tumani hokimligi

Uchquduq tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Soliq kodeksi”ning 429-, 437-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida“gi PF-6121-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar bo‘yicha 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 1-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashiga joriy yilning 15-dekabriga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalari belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

4. Ushbu qaror “UCHQUDUQ” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Shakarov) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O. Hikmatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Xamroyev**

Xalq deputatlari Uchquduq tuman
Kengashining
2023 yil 12 yanvardagi
VI-60-4-5-76-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	MFY va OFYlari nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 ga uchun 38 400 000 so‘m)
1	“Navoiy” MFY	1,1	42 240 000
2	“Mustaqillik” MFY	1,1	42 240 000
3	“Do‘stlik” MFY	1,1	42 240000
4	“Aytim” MFY	1,1	42 240 000
5	“Abay” MFY	1,1	42 240 000
6	“Kokpatas” MFY	0,9	34 560 000
7	“Altintov” OFY	0,8	30 720 000
8	“Bozdun” OFY	0,8	30 720 000
9	“Mingbuloq” OFY	0,8	30 720 000
10	“Uzunquduq” OFY	0,8	30 720 000
11	“Shalxar” OFY	0,9	34 560 000
12	“Yo‘lchilar” OFY	1,0	38 400 000
13	“Ko‘kayaz” OFY	0,8	30 720 000
14	“Iftixor” MFY	1,1	42 240 000

Xalq deputatlari Uchquduq tuman
Kengashining
2023 yil 12 yanvardagi
VI-60-4-5-76-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	MFY va OFYlar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 ga uchun)
1	“Navoiy” MFY	1,1	408,98
2	“Mustaqillik” MFY	1,1	408,98
3	“Do‘stlik” MFY	1,1	408,98
4	“Aytim” MFY	1,1	408,98
5	“Abay” MFY	1,1	408,98
6	“Kokpatas” MFY	0,9	334.62
7	“Altintov” OFY	0,8	297,44
8	“Bozdun” OFY	0,8	297,44
9	“Mingbuloq” OFY	0,8	297,44
10	“Uzunquduq” OFY	0,8	297,44
11	“Shalxar” OFY	0,9	334.62
12	“Yo‘lchilar” OFY	1,0	380,40
13	“Ko‘kayaz” OFY	0,8	297,44
14	“Iftixor” MFY	1,1	408,98